

HINDIY TILIDAGI RASMIY USLUB MATNLARIDA QO'SHMA FE'LLAR SEMANTIKASI

(Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modining Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining 21-sammitidagi bayonotida so'zlagan nutqi asosida)



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7388949>

Dadashova Nurxon Burxon qizi

2-kurs magistranti,

Tel: +998919420997, E-mail: nurkhonyokubova@gmail.com

Annotatsiya. Hindiston va O'zbekiston o'rtasidagi siyosiy-diplomatik aloqalar rivojlanib borar ekan, ikki tomonlama o'tkazilayotgan rasmiy uchrashuvlar, siyosiy tashriflar, videokonferensiyalarda mukammal tarjimaga ham ehtiyoj kuchayadi. O'z-o'zidan, hindiy tilidagi rasmiy uslub matnlarida shu uslubga xos so'zlarni tarjimada to'g'ri berilishi muhim hisoblanadi. Ushbu maqolada hindiy tilidagi rasmiy uslubga xos matnda (Narendra Modi nutqi orqali) fe'llarning qo'llanilishi, ularni tarjimada berilishi hamda rasmiylik darajasi jihatlarini ko'rib chiqiladi.

Tayanch so'zlar: rasmiy uslub, fe'l, semantika, qo'shma fe'l, o'zlashma fe'l, tarjima, rasmiy tarjima.

Annotation. As the political-diplomatic relations between India and Uzbekistan is developing, the need for perfect translation in official bilateral meetings, political visits, and video conferences will increase. By itself, it is important to correctly translate words specific to this style in official style texts in Hindi. This article examines the use of verbs, their translation, and aspects of formality in a formal Hindi text (through Narendra Modi's speech).

Key words: formal style, verb, semantics, compound verb, possessive verb, translation, formal translation.

Hindiy tilidagi rasmiy uslub matnlarida qo'shma fe'llar alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday matnlarda fe'llar asosan qo'shma shaklda, majhul nisbatda ifodalanadi. Hindiston Respublikasi Bosh vaziri Narendra Modining Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashining 21-sammitidagi bayonotida so'zlagan nutqi asosida ushbu maqolada qo'shma fe'llarning rasmiy matnlarda ishlatilish holatlari ko'rib

chiqiladi. Nutqda foydalanilgan jami 37 ta qo'shma fe'l ajratib olingan bo'lib, ular quyidagi shaklda semantik tahlil etiladi:

- O'zlashgan so'zdan yasalganligiga ko'ra;
- Rasmiylik darajasiga ko'ra;
- Nisbatiga ko'ra;
- Zamonlarda ifodalanishiga ko'ra;

Ajratib olingan qo'shma fe'llar quyidagilar:¹

बधाई देना	साझा करना
संचालन करना	share करना
स्वागत करना	आयोजित करना
प्रभाव दिखाना	खुशी होना
मजबूत और credible बनना	जोर देना
स्पष्ट कर देना	प्रेरित होना
कार्य करना	सुनिश्चित करना
नज़र डालना	participatory होना
develop करना	निहित होना
विकसित करना	स्थापित कर पाना
काम करना	योगदान देना
प्रशंसा करना	तैयार होना
प्रस्तावित करना	सबल बनाना
ज़रूरी होना	समाप्त करना
stakeholder बनना	धन्यवाद करना
प्रोत्साहित करना	आयोजन और सञ्चालन करना

¹ शंघाई सहयोग संगठन के राष्ट्राध्यक्षों की परिषद के 21वें शिखर सम्मेलन में प्रधान मंत्री का वक्तव्य, सितम्बर 17, 2021

बढ़ावा दे सकना	शुभकामनाएं देना
सहारा लेना	आश्वासन देना

Qo'shma fe'llar ikki qismdan iborat bo'lib, boshqa turkumdagi so'zning fe'l bilan qo'shilishi orqali yasaladi. Hindiy tilidagi qo'shma fe'llar nafaqat hindiy va Sanskrit tillaridagi so'zlar bilan, balki, boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar orqali ham yasaladi va bunday qo'shma fe'llar nutqda faol qo'llaniladi. O'zlashgan so'zlardan yasalishiga ko'ra ko'rib chiqilayotgan qo'shma fe'llarni quyidagi kategoriyalarga ajratish mumkin:

- 1) Arab-forscha so'zlar bilan yasalgan qo'shma fe'llar;
- 2) Inglizcha so'zlar bilan yasalgan qo'shma fe'llar;
- 3) Sanskrit so'zlar bilan yasalgan qo'shma fe'llar.

Arab-forscha so'zlar bilan yasalgan qo'shma fe'llar. Boburiylar istilosidan so'ng arab va fors-tojik tili Hindistonda asta yoyilib, qo'llanila boshlandi. Bugungi kunda ushbu tillardan o'zlashgan so'zlar hindlar tomonidan faol foydalaniladi.

- *नए member और डायलॉग partners से SCO भी और मजबूत और credible बनेगा²*

(Yangi a'zolar hamda muloqot hamkorlari bilan ShHT yana-da **mustahkam** va **ishonchli bo'ladi**).

Ushbu gapda ingliz hamda arabcha so'zlar orqali murakkab qo'shma fe'l yasalgan: **मजबूत और credible बनना**. Bunda बनना fe'li मजबूत otiga ham tegishli bo'lib, मजबूत बनना³ – kuchli bo'lmoq, mustahkam bo'lmoq degan ma'noni anglatadi. Arab tiliga hindiy tilidagi fe'lni qo'shish orqali qo'shma fe'l hosil qilingan. Rasmiylik darajasiga ko'ra o'rta darajada, aniq nisbatda, kelasi zamonda ifodalangan.

- *यदि हम इतिहास पर नजर डालें, तो पाएंगे कि मध्य एशिया का क्षेत्र moderate और progressive culture और values का एक प्रकार का गढ़ रहा है, किला रहा है⁴*

² शंघाई सहयोग संगठन के राष्ट्राध्यक्षों की परिषद के 21वें शिखर सम्मेलन में प्रधान मंत्री का वक्तव्य, सितम्बर 17, 2021

³ А.С.Бархударов, В.М.Бескровский, Г.А.Зограф, В.П.Липеровский., «Хинди-Русский словарь». – Москва: 1972.

⁴ शंघाई सहयोग संगठन के राष्ट्राध्यक्षों की परिषद के 21वें शिखर सम्मेलन में प्रधान मंत्री का वक्तव्य, सितम्बर 17, 2021

(*Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, Markaziy Osiyo mintaqasi o'ziga xos qal'a, mo'tadil va ilg'or madaniyat va qadriyatlar qal'asi bo'lganini ko'ramiz.*)

नज़र डालना – arab tilida “nigoh”, “qarash”, ma'nolarini anglatadigan नज़र⁵ ot turkumidagi so'zga hindiy tilidagi “solmoq”, “qo'ymoq” ma'nosini anglatuvchi डालना fe'li qo'shilishi natijasida qo'shma fe'l hosil qilinmoqda hamda “nazar tashlamoq” shaklida tarjima qilinmoqda. Rasmiylik darajasiga ko'ra o'rta darajada, badiiylik ifodasi ko'proq, aniq nisbatda, istak maylida hozirgi zamonda ifodalangan.

- *Radicalization से लड़ाई क्षेत्रीय सुरक्षा और आपसी trust के लिए तो आवश्यक है ही, यह हमारी युवा पीढ़ियों के उज्ज्वल भविष्य के लिए भी जरूरी है।⁶*

(*Radikallashuvga qarshi kurashish nafaqat mintaqaviy xavfsizlik va o'zaro ishonch, balki yosh avlodlarimizning porloq kelajagi uchun ham zarurdir.*)

Fors tilidan o'zlashgan जरूरी so'zi hindiy tilidagi “bo'lmoq” fe'li bo'lgan होना bilan bitta qo'shma fe'lni tashkil etmoqda. Ma'nosi “zarur bo'lmoq”qa to'g'ri keladi. Rasmiylik darajasiga ko'ra o'rta darajada, aniq nisbatda, hozirgi oddiy zamonda qo'llanilgan.

- *हमें SCO partners के साथ भी इन open source टेक्नोलॉजी को share करने में और इसके लिए capacity building आयोजित करने में खुशी होगी*

(*Shuningdek, biz ushbu ochiq kodli texnologiyalarni ShHT hamkorlari bilan baham ko'rishdan va shu maqsadda salohiyatni oshirishni tashkil etishdan mamnun bo'lamiz.*)

Fors-tojik tilidan o'zlashgan खुशी ot turkumidagi so'z bilan होना fe'lining qo'shilishi natijasida “xursand bo'lmoq”, “mamnun bo'lmoq” ma'nosidagi qo'shma fe'l hosil qilingan. खुशी so'zining o'zi sifatdan yasalgan bo'lib, खुश (khush) so'ziga – ई so'z yasovchi qo'shimchasini qo'shish orqali hosil qilingan.⁷ Matnning rasmiy uslubda ekanligi inobatga olinib, tarjimada “xursand bo'lamiz” emas, balki “mamnun bo'lamiz” shaklida berilgan. Shu orqali bu so'zning rasmiylik darajasini yuqori deb aytishimiz mumkin. Aniq nisbatda, hozirgi oddiy zamonda ifodalangan.

⁵ А.С.Бархударов, В.М.Бескровский, Г.А.Зограф, В.П.Липеровский., «Хинди-Русский словарь». – Москва: 1972.

⁶ O'sha manba

⁷ Sahni., Advanced Dictionary: Hindi-Hindi-English., - Sahni Brothers, Agra: 2014.

- *खनिज संपदा हो या intra-SCO trade, इनका पूर्ण लाभ उठाने के लिए हमें आपसी connectivity पर जोर देना होगा।*

(Xoh mineral boylik bo'lsin, xoh ShHT ichidagi savdo bo'lsin, ulardan to'liq foydalanish uchun o'zaro bog'liqlikka alohida e'tibor qaratishimiz kerak.)

Fors-tojik tilidan tarjima qilganda “kuch” ma'nosini beruvchi जोर so'zi “bermoq” ma'nosidagi “देना” fe'li bilan bog'lanib, “kuch bermoq”, “zo'r bermoq” ma'nolarini anglatuvchi qo'shma fe'lni hosil qilgan.⁸ Gapning umumiy ma'nosidan kelib chiqqan holda, “alohida ahamiyat bermoq” ma'nosida “e'tibor qaratmoq” deya tarjima qilingan. Rasmiylik darajasi ushbu gapda yuqori, aniq nisbatda, hozirgi zamonda ko'plik shaklda qo'llanilmoqda.

इस प्रयत्न के लिए भारत अपनी तरफ से हर प्रकार का योगदान देने के लिए तैयार है।

(Ushbu sa'y-harakatlar uchun Hindiston o'z tomonidan har qanday hissa qo'shishga tayyor)

Fors-tojik tilidan o'tgan तैयार (tayyor) so'ziga hindi tilidagi होना (bo'lmoq) fe'li qo'shilishi natijasida bitta qo'shma fe'l yasalmogda. तैयार so'zining hindi tilida bir qancha sinonimlari bor (उद्यत, तत्पर, प्रस्तुत, कटिबद्ध, मुस्तैद, उपस्थित, सन्नद्ध, उत्सुक, उन्मुख), lekin ularning hech biri biz bilgan ma'nodagi “tayyor” ma'nosini bermaydi, balki ma'lum bir vaziyatda tayyor so'zini qisman ifodalashi mumkin, lekin doim ham emas. Shu sababli bu so'z hindi tilida har bir qatlamda va uslubda, publitsistik va rasmiy usullarda ham kundalik turmushda ishlatilgani kabi faol ishlatiladi. Rasmiylik darajasiga ko'ra o'rtacha, aniq nisbat, hozirgi zamon ko'plik shaklida ifodalangan.

Inglizcha so'zlar bilan yasalgan qo'shma fe'llar. Ingliz tili Hindistonda ikkinchi rasmiy til hisoblanadi va hindi tili bilan birgalikda faol ishlatiladigan til hisoblanadi. Kundalik turmushda ingliz tilidan o'tgan so'zlar faol qo'llanilsa-da, yuqori darajadagi rasmiy doiradagi nutqlarda asosan sof hindi tilidan foydalanishga alohida e'tibor beriladi. Lekin bugungi kunda xalqaro darajadagi terminlar, barchaga tushunarli bo'lib borayotgan atamalar borki, ularni rasmiy nutqlarda ham qo'llash

⁸ Sahni., Advanced Dictionary: Hindi-Hindi-English., - Sahni Brothers, Agra: 2014.

⁹ शंघाई सहयोग संगठन के राष्ट्राध्यक्षों की परिषद के 21वें शिखर सम्मेलन में प्रधान मंत्री का वक्तव्य, सितम्बर 17, 2021

odatiy holga aylanib bormoqda. Ma'lum bir sohaviy atamalar, hindchasi faol qo'llanmaydigan maxsus so'zlarning ingliz tilidagi variantini qo'llash ma'qul topilmoqda.

- *नए member और डायलॉग partners से SCO भी और मजबूत और credible बनेगा।*

(Yangi a'zolar hamda muloqot hamkorlari bilan ShHT yana-da mustahkam va ishonchli bo'ladi).

Credible so'zi ingliz tilidan “ishonchli”, “ishonishga loyiq” deb tarjima qilinadi. Hindiy tilidagi बनना fe'li qo'shilishi natijasida “ishonchli bo'lmoq” fe'li hosil qilinmoqda. “Credible” so'zining hindiy tilidagi muqobili “विश्वसनीय” {vishvasneey} hisoblanadi. Ma'no jihatdan bir xil. Ammo विश्वसनीय so'zi rasmiylik jihatdan credible so'zidan nisbatan quyida. Shu tufayli, rasmiy nutqda ingliz tilidagi variant qo'llamilishi lozim topilgan.

- *मध्य एशिया की इस ऐतिहासिक धरोहर के आधार पर SCO को radicalization और extremism से लड़ने का एक साझा template develop करना चाहिए।¹⁰*

(Markaziy Osiyoning ushbu tarixiy merosidan kelib chiqib, ShHT radikallashuv va ekstremizmga qarshi kurashning umumiy qolipini ishlab chiqishi kerak).

Hindiy tilida “rivojlanish” ma'nosida विकास {vikaas}¹¹ so'zi ishlatiladi. Bu yerda esa ingliz tilidan o'zlashgan so'z bilan birgalikda “develop करना” o'zlashma qo'shma fe'li ishlatilmoqda. Matnning umumiy mazmunidan kelib chiqqan holda ushbu fe'l “ishlab chiqish” deya tarjima qilinmoqda. Negaki, bu yerda mavjud narsani rivojlantirish ma'nosida emas, balki, hali qilinmagan ishni vujudga keltirish va takomillashtirish ma'nosi qo'llanilmoqda. Rasmiylik nuqtai nazaridan yuqori darajada, aniq nisbatda, infinitiv shaklda qo'llanilmoqda.

- *विकसित विश्व के साथ प्रतिस्पर्धा के लिए हमारे क्षेत्र को उभरती टेक्नोलॉजी में stakeholder बनना होगा।*

(Rivojlangan dunyo bilan raqobatlashish uchun mintaqamiz rivojlanayotgan texnologiyalarning manfaatdor tomonlariga aylanishi kerak.)

¹⁰ शंघाई सहयोग संगठन के राष्ट्राध्यक्षों की परिषद के 21वें शिखर सम्मेलन में प्रधान मंत्री का वक्तव्य, सितम्बर 17, 2021

¹¹ Sahni., Advanced Dictionary: Hindi-Hindi-English., - Sahni Brothers, Agra: 2014.

Stakeholder soʻzini “manfaatdor tomon” deb tarjima qilish mumkin, ushbu soʻzni “shareholder” yoki “stockholder” soʻzlari bilan adashtirmaslik zarur. Bularni maʼnoviy jihatdan qisman yaqin soʻzlar deyish mumkin. Stakeholder soʻzining hindi tilidagi tarjimasi “हितधारक” soʻzidir.¹²

Bundan tashqari, matnda “share करना”, “participatory होना” feʼllari oʻzlashma qoʻshma feʼl sifatida qoʻllanilgan. Agar eʼtibor qaratadigan boʻlsak, koʻpchilikka yaxshi tushuniladigan umumiy xalqaro terminlar uchun inglizcha muqobil tanlangan. Bu hindi tilida soʻzlanayotgan nutqning yana-da eʼtibor jalb qilishini taʼminlaydi.

Qolgan qoʻshma feʼllar hindi va Sanskrit soʻzlari yordamida yasalgan.

Qisqa xulosa sifatida, rasmiy nutqda oʻzga tildan oʻzlashgan feʼllarning qoʻllanilishini quyidagicha ifodalash mumkin:

- Oʻzlashma feʼl hindiy tilining kundalik va rasmiy nutqida xalqning ona tiliga singib, faol qoʻllanilsa;
- Oʻzlashma feʼl xalqaro maydonda koʻpchilikka tushunilgan xalqaro soʻz yoki atamaga aylangan boʻlsa;
- Rasmiy nutqni tinglayotgan tarafning til nuqtai nazaridan kelib chiqib, oʻrtada diplomatik hamkorlik munosabatlarini yana-da yaqinlashtirishga qaratilgan aniq maqsad boʻlsa;
- Oʻzlashma feʼl hindiy tilidagi feʼl bilan bir qatorda rasmiy uslubda foydalanilsa va uning rasmiylik darajasi oʻz tilidagi feʼldan ustunroq boʻlsa;
- Barcha uchun umumiy va tushunarli boʻlgan soʻzlar orqali nutqqa boʻlgan eʼtiborni kuchaytirish maqsad qilingan boʻlsa.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. शंघाई सहयोग संगठन के राष्ट्राध्यक्षों की परिषद के 21वें शिखर सम्मेलन में प्रधान मंत्री का वक्तव्य, सितम्बर 17, 2021
2. А.С.Бархударов, В.М.Бескровский, Г.А.Зограф, В.П.Липеровский., «Хинди-Русский словарь». – Москва: 1972.
3. Sahni., Advanced Dictionary: Hindi-Hindi-English., - Sahni Brothers, Agra: 2014.
4. www.mea.gov.in
5. https://www.mea.gov.in/Speeches-Statements.htm?50/Speeches__amp;_Statements

¹² Sahni., Advanced Dictionary: Hindi-Hindi-English., - Sahni Brothers, Agra: 2014.